



O'ZBEK TILIDAGI RETRONIMLARNING TEMATIKASI

Xolmonova Sadoqat
O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Tilning rivojlanishi jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, ilm-fan, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda o'zbek tilining lug'at boyligi yangidan yangi retronymlar bilan boyishda davom etmoqda va bu holat insonlarning kundalik hayotdagi nutqida o'z aksini topmoqda. Til egalarining doimiy lug'at boyligi kundan kunga yangi tushunchalar bilan boyiyotgani, retronymlardan tobora ko'proq foydalananayotganimiz natijasida ushbu hodisani tadqiq qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu maqola o'zbek tilidagi retronymlar tadqiqiga bag'ishlanadi. Shu kungacha retronymlar mavzusi nisbatan kam o'r ganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Dunyo va o'zbek tilshunosligidagi retronymlar masalasi to'liq o'r ganilishi kutilayotgan muhim masalalardan biridir. Shu sababli maqolamizda o'zbek tilidagi retronymlar va ularning tematikasi haqida atroflicha fikr yuritishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: retronym, leksema, neologizm, neonym, protonim.

Аннотация: Не секрет, что развитие языка тесно связано с жизнью общества. Особенно сейчас, когда стремительно развиваются наука и цифровые технологии, лексика узбекского языка продолжает обогащаться новыми ретронимами, и эта ситуация находит отражение в речи людей в повседневной жизни. Необходимость исследования этого явления возрастает в связи с тем, что словарный запас носителей языка с каждым днем обогащается новыми понятиями, и мы все чаще используем ретронимы. Данная статья посвящена изучению ретронимов в узбекском языке. По сей день тема ретронимов является одной из относительно малоизученных областей. Вопрос ретронимов в мировом и узбекском языкознании является одним из важных вопросов, который предстоит всесторонне изучить. Поэтому в нашей статье мы постарались поразмышлять о ретронимах в узбекском языке и их тематике.

Ключевые слова: ретроним, лексема, неологизм, неоним, протоним.

Abstract: It is no secret that the development of a language is closely connected with the life of society. Especially now, when science and digital technologies are rapidly developing, the vocabulary of the Uzbek language continues to be enriched with new retronyms, and this situation is reflected in the speech of people in everyday life. The need to study this phenomenon is increasing due to the fact that the vocabulary of native speakers is enriched with new concepts every day, and we are increasingly using retronyms. This article is devoted to the study of retronyms in the Uzbek language. To this day, the topic of retronyms is one of the relatively little-studied areas. The issue of retronyms in the world and Uzbek linguistics is one of the important issues to be comprehensively studied. Therefore, in our article, we tried to reflect on retronyms in the Uzbek language and their subject matter.

Keywords: retronym, lexeme, neologism, neonym, protonym.

Barcha tillarning lug‘at boyligi uzoq vaqt davom etgan tarixiy jarayonda paydo bo‘ladi va sayqallanib boradi. Tilni xalqdan va jamiyatdan ayri holda tasavvur qilish va o‘rganish mumkin emas. Har bir tilni tashkil etgan leksemalarda jamiyat hayotining butun jihatlari va xususiyatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi. Jamiyatda bo‘layotgan texnologik, madaniy, iqtisodiy o‘zgarishlar, rivojlanishlar natijasida tilning lug‘at boyligida ham turli yangi tushunchalar paydo bo‘lib boradi yoki ayrimlari muomaladan chiqib ketadi. “Har bir milliy tilda so‘z va tushunchalarning hammaga ma’lum bo‘lgan, cheklangan muayyan zahirasi bo‘ladi. Ularsiz qayerda yashashidan, madaniyati, texnikasi, iqtisodiyoti qanday bo‘lishidan qat’i nazar jamiyatning birorta a’zosi ham o‘z fikrini bildira olmagan bo‘lardi.

Til o‘z tarixi davomida butunlay o‘zgarib ketishi, boyishi va maxsus leksikasini yo‘qotib, qashshoqlashishi mumkin, ammo u hech qachon asosiy jamg‘armani boy bermaydi. Uni yo‘qotish tanazzul bilan teng bo‘lar edi”. [1, 16-bet]

Atrofimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, rivojlanishlar natijasida tilning lug‘at boyligida ham yangi tushunchalar paydo bo‘la boshlar ekan, ularga doim ham yangi nom berilavermaydi. Ya’ni texnologiyadagi rivojlanishlar, ilmiy yutuqlar va boshqa turli holatlarda paydo bo‘lgan tushunchalar shu kungacha mavjud so‘zdan ajratiladi va buning natijasida tilda retronomilar paydo bo‘ladi.

“Retronim” atamasini ilk bor 1980-yil o‘sha vaqtdagi AQSh Milliy jamoat radiosining prezidenti Frank Mankiyevich ishlatgan. Ushbu atamaning ommalashishiga esa “Nyu-York tayms” gazetasining muxbiri Vilyam Safire sababchi bo‘lgan. U 1992-yil gazetaning “Til tog‘risida” ruknida “elektron pochta” atamasi paydo bo‘lganidan so‘ng odatiy pochta nima deb nomlana boshlaganiga qiziqqan va shundan so‘ng “retronim” atamasi keng ishlatila boshlangan.

“Retronim – mavjud so‘zning asl shaklini taraqqiyot yoki texnologik rivojlanish mahsuli bo‘lgan keyingi shaklidan faqlash uchun paydo bo‘lgan yangi nomdir. Masalan, Birinchi jahon urushi Ikkinci jahon urushi sodir bo‘lgunga qadar “Buyuk urush” yoki shunchaki “Jahon urushi” deb nomlangan. Ikkinci jahon urushi terminining paydo bo‘lishi avvalgi urushning Birinchi jahon urushi deb nomlanishiga sabab bo‘ldi. Yoki avvaliga aniq sanani bilish maqsadida yaratilgan predmet “kalendar” deb atalib, keyinchalik uning turlari rivojlanib borishi natijasida “stol kalendar”, “yirtma kalendar”, “osma kalendar” kabi nomlar paydo bo‘ldi va ularni bir-biridan farqlash ehtiyoji yuzaga keldi. Shu tariqa paydo bo‘lgan birliklar esa “retronimlar” nomi bilan birlashtirildi”. [5]

Retronimlarni o‘rganish va tasnif qilish jarayonida ularning tematikasi bilan bog‘liq masalalarni ham ko‘rib chiqish zarur. Tadqiqotchilar retronomlarni turli mavzularda o‘rganishni taklif qiladilar. “Bundan tashqari retronomlarni tematik jihatdan tasniflash mumkin. Bunday tasnifda retronomilar: joy nomlari, mahsulot nomlari, shaxs nomlari, tushuncha nomlari, tarixiy voqealari nomlari va boshqa mavzularda sanab o‘tish mumkin”. [4]

Mariya Lozano va Zahonero la Monika Palmerinilar o‘z tadqiqotlarida retronomlarni quyidagicha tematik guruhlarga bo‘ladilar:

“Semantik nuqtayi nazardan biz retronomlarning turli kichik guruuhlarini yaratishga turtki bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu xususiyatlar quyidagi sohalarga tegishli bo‘lgan konseptual bo‘limlar atrofida guruhlanadi:

- 1) texnologik retronomlalar: uy telefoni – uyali aloqa;
- 2) ijtimoiy, insoniy, ayniqsa, huquqiy munosabatga doir retronomlalar: biologik ona – surrogat ona;
- 3) insonning kundalik faoliyati bilan bog‘liq retronomlalar: an’anaviy qishloq xo‘jaligi – sanoat qishloq xo‘jaligi;
- 4) ilmiy retronomlalar: an’anaviy grammatika – struktur grammatika;
- 5) mahsulotni qayta ishlash natijasida paydo bo‘lgan retronomlalar: oddiy sut – yog‘li/yog‘siz sut;
- 6) bir xil markadagi mahsulot turlari bilan bog‘liq retronomlalar: klassik kola – shakarsiz kola;
- 7) xronologik voqealar bilan bog‘liq retronomlalar: Birinchi jahon urushi – Ikkinci jahon urushi;
- 8) geografik hududlar: Eski dunyo – Yangi dunyo”. [2]

Prof. M. Yo‘ldoshev esa retronomlalar haqidagi maqolasida ularning tematikasi haqida quyidagi tasnifni ilgari suradi:

“Tildagi retronomlalar ko‘lami ularni tematik tasnif qilish imkonini beradi: toponimlar (Dehli – Yangi Dehli), antropomimlar (Abdulloh – Abdulloh II), tarixiy voqealari nomlari (Birinchi jahon urushi – Ikkinci jahon urushi), narsa-buyum nomlari (kema – suv osti kemasi), jarayon nomlari (ta’lim – masofaviy ta’lim) va h.k.” [6]

Bizning tadqiqotimiz asosini o‘zbek tilidagi retronomlalar tashkil qilar ekan, to‘plagan retronomik qatorlarimizdan kelib chiqib, tilimizdagи retronomlarni quyidagicha tematik tasniflashni taklif qilamiz:

1. Atoqli otlar bilan bog‘liq retronomlalar. Ularni o‘z ichida kichik guruhlarga bo‘lish mumkin:
 - a) antropomimlar: Abdulhamidxon I – Abdulxamidxon II;
 - b) toponimlar: Janubiy Amerika – Shimoliy Amerika;
 - d) turli mahsulotlarga qo‘ylgan shartli nomlar: “Muzlik davri I” – “Muzlik davri II”...
2. Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq retronomlalar: oddiy fotoapparat – raqamlı fotoapparat...
3. Ilmiy tushunchalar bilan bog‘liq retronomlalar. Ular ham o‘z navbatida turli kichik guruhlarga bo‘lina oladi:
 - a) tilshunoslik bilan bog‘liq: an’anaviy sintaksis – struktur sintaksis;
 - b) adabiyotshunoslik bilan bog‘liq: oddiy roman – she’riy roman;
 - d) fizika bilan bog‘liq: mexanik uzatma – avtomat uzatma...
4. Narsa-buyum otlari bilan bog‘liq retronomlalar. Ularni ham guruhlashimiz mumkin:
 - a) uy-ro‘zg‘or buyumlari: oddiy choynak – elektr choynak;
 - b) oziq-ovqat turlari: oddiy qahva – sutli qahva;
 - d) o‘simliklar: tabiiy gul – sun’iy gul...

5. Sport atamalari bilan bog‘liq retronomilar: katta tennis – stol tennis...
6. Tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq retronomilar: Birinchi jahon urushi – Ikkinci jahon urushi...
7. Insonlarning faoliyat-jarayoni bilan bog‘liq retronomilar: an’anaviy dars – onlayn dars...
8. O‘rin-joy otlari bilan bog‘liq retronomilar: oddiy do‘kon – ko‘chma do‘kon va boshqalar.

Yuqoridagi guruqlar tadqiqotimiz doirasida yig‘ilgan retronomilarning semantik xususiyatidan kelib chiqib tasniflandi. Boshqa misollar yordamida ushbu tematik guruqlarni yanada ko‘paytirish mumkin. Bu guruqlarning har birini alohida tahlil qilib chiqish tilshunoslikning navbatdagi masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Abayev V. (1949). Osetenskiy yazik i folklor. T.I.M. –L.
2. Lazana I. (2012). Yangi yunon tilida paleonimiya hodisasi.
3. Safire V. (2007). Til to‘g‘risida: retronomilar. New York Times jurnali.
4. Sari I. (2013). Tilda qayta nomlash ehtiyoji: retronomilar. Turkbilik.
5. Xolmonova S. (2021). O‘zbek matbuotida qo‘llangan retronomilar. Middle European Scientific Bulletin.
6. Yuldashev M. (2020). O‘zbek tilida retronomilar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.